



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Муратов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘rni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘rni.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

6. Бекмуратов Т.Ф. Интеллектуализация базовых платформ цифровой экономики. Материалы Республиканской НТ Конференции «Современное состояние и перспективы применение цифровых технологий и искусственного интеллекта в управлении». -Т.:, 6-7 сентября 2021 г.
7. Эконометрика: учебник / И.И.Елисеева, С.В.Курьшева, Т.В.Костеева и др.; под ред. И.И.Елисеевой.- 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007.- 339 с.
8. Политова И.Д. Дисперсионный и корреляционный анализ в экономике сельского хозяйства. – М.: «Колос», 1978.- 190с.
9. Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini optimallashtirish asosida iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash. Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. № 1-son yanvar, 2026-yil. www.marketingjournal.uz. ISSN:3060-4621
10. Qodirov Z.E. Klaster tizimining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport hajmiga ta‘sirini ekonometrik modellashtirish. “Экономика и социум” Международный научно-практический журнал. Выпуск: 02(141)2026.

UDK:330.34

QISHLOQ XO‘JALIGINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МОДЕРНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

ECONOMIC SIGNIFICANCE OF AGRICULTURAL MODERNIZATION

О‘rinov Akmaljon Axmadjonovich

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Ahmadaliyeva Ruxshonaxon Abrorjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish jarayonining iqtisodiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish masalalari yoritiladi.

Shuningdek, yetakchi xorijiy olimlarning mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlari o‘rganilib, ularning natijalari asosida xulosalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, modernizatsiya, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, texnologiya, mehnat unumdorligi, barqaror rivojlanish.

В статье проводится научно-теоретический анализ экономической значимости модернизации сельского хозяйства. Рассматривается влияние внедрения современных технологий, инновационных подходов и совершенствования производственных процессов на повышение производительности труда и экономической эффективности. Также анализируются научные взгляды ведущих зарубежных ученых и формулируются соответствующие выводы.

Ключевые слова: сельское хозяйство, модернизация, экономическая эффективность, инновации, технологии, производительность труда, устойчивое развитие.

This article analyzes the economic importance of agricultural modernization from a scientific and theoretical perspective. The role of modern technologies, innovative approaches, and improved

production processes in increasing labor productivity and economic efficiency is examined. In addition, the scientific views of leading foreign scholars on this issue are analyzed, and conclusions are drawn based on the results.

Key words: agriculture, modernization, economic efficiency, innovation, technology, labor productivity, sustainable development.

Qishloq xo‘jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, xomashyo bazasini mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi globallashuv sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bo‘lgan talab oshib borayotgan bo‘lsa-da, resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishi mazkur sohada tub islohotlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish — bu agrar sohada ishlab chiqarishning texnik, texnologik, tashkiliy va boshqaruv jihatlarini tubdan yangilash jarayonidir. Modernizatsiya jarayoni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni, resurslardan samarali foydalanishni va iqtisodiy natijadorlikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon faqat texnik vositalarni yangilash bilan cheklanib qolmay, balki ishlab chiqarish madaniyatini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va innovatsion fikrlashni joriy etishni ham o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan modernizatsiya qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayoni mahsulot sifatining yaxshilanishiga, tannarxning pasayishiga va foydaning oshishiga olib keladi. Bu esa fermer xo‘jaliklari va agrar korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi. Shuningdek, modernizatsiya qishloq xo‘jaligini bozor mexanizmlariga moslashtirishga yordam beradi.

Mehnat unumdorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligida modernizatsiya ushbu ko‘rsatkichni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kamroq ishchi kuchi bilan ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Modernizatsiya natijasida qishloq xo‘jaligida yangi kasb va mutaxassisliklar shakllanadi. Masalan, agrotexnolog, raqamli boshqaruv mutaxassisi, texnika operatorlari kabi kasblar paydo bo‘ladi. Bu esa mehnat bozorining sifat jihatdan rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, mehnat sharoitlari yaxshilanib, jismoniy mehnat ulushi kamayadi.

Innovatsiyalar va raqamlashtirish qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli monitoring tizimlari va ma‘lumotlarni tahlil qilish vositalari ishlab chiqarish jarayonini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

Natijada xatoliklar kamayadi, tavakkalchiliklar pasayadi va iqtisodiy barqarorlik ta‘minlanadi. Raqamlashtirish yordamida ekin maydonlari holatini monitoring qilish, ob-havo ma‘lumotlarini tahlil qilish va hosildorlikni prognozlash mumkin bo‘ladi. Bu esa fermerlar qarorlarining ilmiy asoslangan bo‘lishiga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar qishloq xo‘jaligini an‘anaviy tarmoqdan yuqori texnologiyali sohaga aylantiradi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon qishloq hududlarida bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Modernizatsiya qilingan qishloq xo‘jaligi qishloq infratuzilmasining rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish masalasi iqtisodiy rivojlanish nazariyasida muhim o‘rin tutib, ushbu yo‘nalish ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Amerikalik iqtisodchi Teodor Shults agrar iqtisodiyot nazariyasining yirik vakillaridan biri bo‘lib, u qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda inson kapitali va bilimlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, an‘anaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi past unumdorlikka ega bo‘lib, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun yetarli emas. Shu sababli agrar sohada texnologik yangilanish va bilimga asoslangan yondashuv zarur. Shults o‘z tadqiqotlarida

qishloq xo‘jaligidagi qashshoqlik va past samaradorlikning asosiy sababi sifatida texnologik orqada qolishni ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, agar fermerlar zamonaviy bilim va texnologiyalarga ega bo‘lmasa, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalana olmaydi. Shu bois olim qishloq xo‘jaligiga investitsiya kiritishda texnika bilan bir qatorda ta‘lim va kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida urg‘u beradi. Teodor Shultsning ilmiy qarashlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi va bozor munosabatlariga moslashuv kuchayadi. Olim qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda davlatning rolini ham inkor etmaydi, chunki infratuzilma va ta‘lim tizimini rivojlantirish bozor mexanizmlari orqali to‘liq hal etilmaydi. Shuningdek, Shults agrar sohada modernizatsiya jarayonlari uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishga xizmat qilishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, qishloq xo‘jaligi samaradorligining oshishi nafaqat agrar tarmoqning, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu sababli uning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Iqtisodchi olim Maykl Porter iqtisodiy raqobatbardoshlik va innovatsiyalar nazariyasi orqali qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish masalasiga yangi yondashuv olib kirgan. Uning fikricha, har qanday tarmoqning rivoji, jumladan qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion ustunliklarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Porter qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishni raqobat ustunligini ta‘minlashning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, texnologik yangilanish mahsulot sifatini oshiradi, tannarxni kamaytiradi va bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Natijada agrar mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lib boradi. Porter nazariyasida innovatsiyalar alohida o‘rin tutadi. Uning fikricha, innovatsiyalar orqali agrar soha yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa eksport hajmining oshishiga, valyuta tushumlarining ko‘payishiga va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining tezlashishiga olib keladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilib, resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi. Bu holat mahsulot tannarxining pasayishiga va ishlab chiqaruvchilar daromadining ko‘payishiga olib keladi.

Agrar sohada texnologik yangilanishlar bo‘lmagan sharoitda iqtisodiy o‘shishga erishish qiyinlashadi. Ayniqsa, suv, yer va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi past bo‘lgan holatlarda modernizatsiya iqtisodiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois modernizatsiya jarayoni qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar qarashlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda faqat texnik vositalarni yangilash yetarli emas. Inson kapitali, ya‘ni bilim, malaka va tajriba texnologik rivojlanish bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Xususan, Theodore Schultz ta‘kidlaganidek, agrar sohada bilim va innovatsiyalarga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishning asosi hisoblanadi. Ushbu fikrni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan malakali kadrlar mavjud bo‘lmagan taqdirda modernizatsiya jarayoni kutilgan natijani bermaydi. Natijada, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi oshib, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajaga ko‘tariladi. Bu esa nafaqat agrar tarmoqning, balki butun milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning muhim natijalaridan biri — tarmoq raqobatbardoshligining oshishidir. Michael Porter nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, texnologik yangilanish va innovatsiyalar ishlab chiqaruvchilarga bozor ustunligini ta‘minlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, modernizatsiya qilingan qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ichki va tashqi bozorlarda yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar bilan ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa eksport hajmining oshishiga, valyuta tushumlarining ko‘payishiga va milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, modernizatsiya qiymat zanjirining barcha bosqichlarida samaradorlikni oshiradi. Ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va logistika tizimlarining modernizatsiyalashuvi agrar mahsulotlarning bozorga chiqish jarayonini tezlashtiradi va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytiradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini

modernizatsiya qilish faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ushbu jarayon qishloq hududlarida bandlik darajasini oshiradi, aholi daromadlarini ko‘paytiradi va turmush sifatini yaxshilaydi.

Modernizatsiya natijasida qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, zamonaviy kasblar shakllanadi va mehnat sharoitlari yaxshilanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish hajmining oshishi va mahsulot sifatining yaxshilanishi aholini barqaror oziq-ovqat bilan ta‘minlash imkonini yaratadi.

1-jadval

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati jadval ko‘rinishida

Yo‘nalishlar	Mazmuni
Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalarini joriy etish, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari, tomchilatib sug‘orish tizimlari, raqamli monitoring va boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish
Iqtisodiy samaradorlik	Iqtisodiy samaradorlik Ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, foyda va daromadning oshishi, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish
Mehnat unumdorligi	Mehnat samaradorligining oshishi, jismoniy mehnat ulushining qisqarishi, malakali kadrlar tayyorlash, yangi kasb va mutaxassisliklarning shakllanishi
Innovatsiyalar va raqamlashtirish	Agroaxborot tizimlari, raqamli platformalar, sun‘iy intellekt elementlari, ilmiy asoslangan rejalashtirish va prognozlash
Raqobatbardoshlik	Ichki va tashqi bozorda raqobat ustunligining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi, mahsulot sifati va standartlarining yaxshilanishi
Ijtimoiy-iqtisodiy natijalar	Qishloq hududlarida bandlikning oshishi, aholi daromadlarining ko‘payishi, turmush darajasining yaxshilanishi, ijtimoiy barqarorlik
Barqaror rivojlanish	Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ekologik muvozanatni saqlash, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish, milliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish jarayoni iqtisodiy o‘sish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Klaster yondashuvi asosida olib borilgan tahlil mazkur jarayonning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish barqaror rivojlanishni ta‘minlash va milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlari. — Toshkent, 2019.
2. Ergashev B.Y. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Abdurahmonov Q.X. Innovatsion iqtisodiyot va agrar sohaning rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 2018.

4. Food and Agriculture Organization. The State of Food and Agriculture. — Rome, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi sohasining statistik ko‘rsatkichlari. — Toshkent, 2022.
6. Xolmatov D.Sh. Agrar sohada modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy tahlili // Ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali. — 2020. — №2.

UDK:338.46

**СУГУРТА МУНОСАБАТЛАРИДА СУГУРТА ТАРИФ СТАВКАЛАРИНИ
АХАМИЯТИ ВА МУАММОЛАРИ**

**ВАЖНОСТЬ И ПРОБЛЕМЫ ТАРИФОВ НА СТРАХОВЫЕ УСЛУГИ В
СТРАХОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ**

**THE IMPORTANCE AND PROBLEMS OF INSURANCE TARIFFS IN INSURANCE
RELATIONSHIPS**

Хайдаров Хошимжон Фаргона Давлат университети доценти, и.ф.н.

Аннотация

Ушбу мақолада суғуртада тариф ставкасининг иқтисодий моҳияти, унинг суғурта тизимидаги аҳамияти ва муаммолари ёритиб берилди. Тариф ставкасининг шаклланиш тамойиллари, унинг асосий тузилиши ҳамда таркибий қисмлари батафсил таҳлил қилинади.

Шунингдек, нетто-ставка ва брутто-ставка тушунчалари, уларнинг фарқи ҳамда суғурта мукофотини ҳисоблашдаги роли изоҳланади. Мақолада суғурта тариф сиёсатини шакллантиришда риск даражаси, статистик маълумотлар ва молиявий барқарорлик омилларининг таъсири кўриб чиқилади. Тадқиқот натижасида суғурта тариф ставкасининг суғурта компаниялари фаолиятидаги аҳамияти очиқ берилди.

Калит сўзлар: суғурта, тариф ставкаси, нетто-ставка, брутто-ставка, суғурта мукофоти, риск, суғурта фонди, тариф сиёсати, актуал ҳисоб-китоблар, молиявий барқарорлик.

В данной статье рассматривается экономическая сущность тарифной ставки в страховании, ее роль и значение в системе страхования. Подробно анализируются принципы формирования тарифной ставки, ее основная структура и компоненты. Также объясняются понятия нетто-ставки и валовой ставки, их различие и роль при расчете страховой премии. В статье рассматривается влияние уровня риска, статистических данных и факторов финансовой стабильности на формирование страховой тарифной политики. Исследование выявляет значение страховой тарифной ставки в деятельности страховых компаний.

Ключевые слова: страхование, тарифная ставка, нетто-ставка, валовая ставка, страховая премия, риск, страховой фонд, тарифная политика, актуарные расчеты, финансовая стабильность.

This article examines the economic nature of the insurance rate, its role, and significance within the insurance system. It analyzes in detail the principles of rate formation, its basic structure, and its components. It also explains the concepts of net rate and gross rate, their differences, and their role in calculating insurance premiums. The article examines the influence of risk level, statistical data, and financial stability factors on the formation of insurance rate policy. The study reveals the importance of the insurance rate in the activities of insurance companies.

Keywords: insurance, rate, net rate, gross rate, insurance premium, risk, insurance fund, rate policy, actuarial calculations, financial stability.